

**“O‘zavtosanoat” AJning
Axborot siyosati to‘g‘risidagi
Nizomi va OAV makonida
tarqatilgan tanqidiy materiallar
va yolg‘on axborot hujumlariga
munosabat bildirish bo‘yicha
Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida**

“O‘zavtosanoat” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan ishlashda yagona axborot siyosatini joriy etish, jamoatchilikka ishonchli, aniq va rasmiy ma‘lumotlarni tizimli yetkazib borishni ta‘minlash, shuningdek, noto‘g‘ri yoki asossiz axborot tarqalishining oldini olish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “O‘zavtosanoat” AJning Axborot siyosati to‘g‘risidagi Nizomi mazkur buyruqning 1-ilovasiga hamda Ommaviy axborot vositalari (OAV) makonida tarqatilgan tanqidiy materiallar va yolg‘on axborot hujumlariga munosabat bildirish bo‘yicha Reglamenti 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

2. Hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi (Latipov), tasdiqlangan Axborot siyosati to‘g‘risidagi Nizom va Ommaviy axborot vositalari (OAV) makonida tarqatilgan tanqidiy materiallar va yolg‘on axborot hujumlariga munosabat bildirish bo‘yicha Reglamentning asl nusxasi saqlanishi ta‘minlansin.

3. “O‘zavtosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi barcha tizim korxona rahbarlari, mazkur buyruqning Nizomi va Reglamenti ijroga qabul qilinsin.

4. Hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi (Latipov), mazkur buyruqni barcha tarkibiy tuzilmalarga hamda tizim korxonalariga yetkazilishi ta'minlansin.

5. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.